



BUXORO ZARDO`ZIGIDA NAQSHARNING BEZATILISH USULLARINI ZAMONAVIY MODADA TADBIG'I

Asadova Nargiza Ixtiyor qizi

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchi-stajyori

Annotatsiya. Ushbu maqola Buxoro zardo`zligida qo'llanilgan bezak elementlarining tikish usullari, unda foydalanilayotgan iplar va asosiy bezaklar haqida bo'lib, ularning zardo`zlikdagi o`rni va hozirgi kunda qo'llanilishi haqidadir.

Kalit so'zlar: zardo'zlik, naqsh, bezak, tangalak, kashta, quroq, kompozitsiya, usul, munchoqlar.

Kirish. Buxoro qadimdan zardo'zi hunarmandchilik turning yuragi hisoblangan. Qadimda zardo'zi buyumlari Buxoro xalqining faqat zodogon tabaqasi uchun tikilgan. Oddiy xalqqa zardo'zi buyumlarini kiyish mumkin bo'lmagan bo'lsada, kiyimning kichkina ixcham elementarida qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Zardo'zi tikish san'ati ham boshqa hunarmandchilik turlari kabi asrdan asrga o'tib kelayotgan hunarmandchilik maktablarida davom ettirilmoqda. Harbir maktabning o'zining tikish, bezash usullari mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Zardo'zlar naqshlar usti va tagini tikish usullarida to'ldirib tikishgan bo'lsa-da, baribir, zardo'zi buyum naqshlarining ayrim o'rinlari bo'sh qolgan. Shunda ular naqshlarni bezatish usullarini kashf etishgan. Bu usullar o'ziga xos ko'rinishlarga ega bo'lib, ular tabiatdagi o'simliksimon elementlarni qayta ishlash orqali hosil qilingan. XIX asr oxiri- XX asrgacha bo'lgan zardo'zlikda naqshlarning bo'sh qolgan o'rinlarini to'ldirish hamda zardo'zi chiroyiga chiroy qo'shish maqsadida ana shunday o'simliksimon elementlar ko'rinishidagi bezatish usullaridan foydalanilgan. XX asr zardo'zligida asta-sekin pulakcha, likkak, vag'ar kabi bezaklar bilan bezatish usullari shakllana borgan. Bu usullarda naqshlarning bo'sh qolgan o'rinlari turli xil bezaklar yordamida hosil qilingan kompozitsiyalar bilan to'ldirib bezatilgan.

Natija. Ko'rinib turibdiki, naqshlarni bezatish usullarining vazifasi bir xil, lekin vositalari har xil bo'lgan ikkita turga ajratish mumkin:






1. Tofta ip yordamida bezatish usuli
2. Bezaklar yordamida bezatish usuli

Bu bezatish turi zardo'zligimizga XX asr boshlarida kirib kelgan bo'lib, hozirda juda tez rivojlanmoqda. Bezaklar bilan bezatish usullari ham bezaklarning turiga qarab bo'linadi. Bu usullarning ham o'ziga xos o'mi va tikishning o'ziga xos yo'llari mavjud bo'lib, bu zardo'zlar fantaziyasining mahsulidir.





Bezaklarni kerakli o'rinlarga joylashtirishda to'g'ri choklardan foydalaniladi.

<i>Bezaklar bilan bezatish turi</i>	<i>Bezakning tarifi</i>	<i>Bezak ko'rinishi</i>



<p>1. Tahrir usuli.</p>	<p>tahrir usuli- deb atalgan. Tahrir usuli asosan guldo'zi atroflarini to'ldirish uchun, ayrim hollarda zamindo'zi atroflarini bezatishda ham ishlatiladi.</p>	
<p>2 Tangalak usuli</p>	<p>Tangalakni zar gullar orasini to'ldirish uchun ishlatish mumkin.</p>	
<p>A.Tangalaki dumchanoq (dumli tangalak)</p>		
<p>B. Tangalaki nuktez (uchli tangalak)</p>		
<p>3 Qobuli bezatish usuli.</p>	<p>Qobuli bezatish usuli asosan, bodom, chilyolak kabi zardo'zlik gullari, geometrik kashtalar, qubba atrofi va zamindo'zilarining ichki tomonlarida ishlatilgan.</p>	



A. Qobuli		
B. Qobuli dumchanoq		
V. Qobuli nuktez (uchli qobuli)		
4. Marg'o'l a	<p>Marg'o'la bezatish nomidan ham ko'rinib turibdiki, ayollar zulfidek jingalak-jingalak ko'rinishga ega bo'lib, u ayollar peshonabandlarida, ro'mollarida, kamkor chopon</p>	

Bezaklar bilan bezatish usulining foydalaniladigan bezaklarning turiga qarab bir necha variantlari mavjud:

1. Pulakchalar bilan bezatish usuli. Bu usulda pulakchalar yordamida naqshlarning bo'sh qolgan o'rinlari bezatiladi. Bunda pulakchalarni materialga mustahkamlashda munchoqlardan yoki likkak bo'laklaridan ishlatiladi

2. Vag'ar bilan bezatish usuli. Bu bezatish usulida zardo'zining bo'sh qolgan ayrim o'rinlari bezatiladi

3. Likkaklar bilan bezatish usulida ham zardo'zining bo'sh qolgan o'rinlari bezatiladi



1-rasm Ayollar bosh kiyimi

Muhokama. Hozirgi kunda kashta, quroq, zardo'zi kabi xalq amaliy bezak san'atlaridan zamonaviy modada foydalanish juda ham keng tarqalgan. Dizaynerlar xalq amaliy san'ati elementlaridan, naqshlaridan, ranglaridan, tikilish va bezatilish usullaridan foydalangan holda zamonaviy kiyimlarda qo'llashmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad hozirgi zamon modasi talablariga moslashgan holda, yoshlar orasida milliy qadriyat va an'analarimizni keng tarqatish, ularning ongida vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otish, milliy kostyum tariximizga bo'lgan hurmat va qiziqshni oshirishdan iborat.

Xulosa. Zardo'zi hunarmandchiligidan zamonaviy kiyimda foydalanishda xay tech usuli keng qo'llaniladi. Bu usul qadimiy naqsh turlarini uslublashtirgan, modaga moslashtirgan holda yangicha tadbiiq qilishdir. Misol uchun zardo'zi naqsh elementlarini kostyum yoki ko'ylak detallarida, sumka yoki poyabzal ustida, yoqa va yeng detallarida kichik hajmda qo'llash mumkin. Shunda zardo'zi naqsh o'z moxiyatini yo'qotmaydi va zamonaviy kiyimga yengil uyg'unlashadi.

Bundan tashqari faqatgina zardo'zi to'lduruvchi bezak detallarini ham bezak sifatida ishlatish mumkin.

Zardo'zi iplari kashta naqshlariga nisbatan nozik va parvarishga moyil bo'lganligi uchun zardo'zi naqshlari kiyimda yoki poyabzalda minimal darajada qo'llanilishi tavsiya etiladi. Shunda bu iste'molchiga ortiqcha noqulaylik tug'dirmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <http://muborak-m22.zn.uz/2017/06/15/zardozlik-sanati-tarixi-va-uning-rivojlanishi-zardozlikda-ishlatiladigan-materiallar/>
2. <http://raretes.ru/tekstil-kostyum-detali-kostyuma-na-vystavke-uzbekistan-na-perekrestke-kultur-v-muzee-istorii-religii/>
3. Jabborova D. Zardo'zlik texnologiyasi. 2004 y. 268 b.



4. Абдуллаев Т.А., Хасанов С.А. Одежда узбеков (XIX начало XX в.) Т..Фан. 1978.
5. Азизова Н.К. Золотое шитьё . Т. 1968. 168 с.